
"MAHALLADA DUV-DUV GAP" TADBIRLARI KO'TARINKI RUHDA O'TKAZILMOQDA

"Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostidagi "Mahallada duv-duv gap" ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari shahrimizning Yangisoy, Zarbdor, 1-Besh bola, Yangi yo'l va Tshqimachilar mahalla fuqarolar yig'inlari aholisi uchun bo'lib o'tdi.

5-maktabda o'tkazilgan tadbirda nuroniylar, yoshlar, ziyolilar hamda turli soha vakillari ishtirok etdilar. Tadbirda so'z olganlar Prezidentimiz raisligida bo'lib o'tgan respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishidagi ustuvor vazifalar xususida to'xtalishib, joriy yilning ilk kunlarida o'ziga xos ko'tarinki kayfiyat baxsh etayotgan mazkur ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlarning mazmun-mohiyati haqida o'z fikrlarini bildirib o'tdilar.

Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar hamda erishilayotgan yutuqlar shahrimiz misolida tadbir ishtirokchilariga hayotiy misollar va dalillar orqali yana bir bor yetkazildi. Farg'ona shahar madaniyat bo'limi san'atkorlari ijrosidagi kuy-qo'shiqlar tadbir ishtirokchilariga manzur bo'ldi.

2024-01-10 09:14:39